



RAUF PARFI SHE'RIYATIDA MILLIY XOTIRA

Nurali Murodillayev

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatida milliy xotira, ozodlik g'oyasi va ruhiy-intellektual kechinmalar poetikasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoir lirikasidagi zulmat – yorug'lik, tun – tong, chiroq – ruh, quyosh – ozodlik singari ramzlar Sharq poetikasiga xos timsoliy fikrlash an'anasi bilan bog'liq holda izohlanadi. Maqola shoir lirikasida milliy o'zlik, tarixiy xotira va ruhiy uyg'onish jarayonining ramziy-metonarrativ tizim orqali ifodalanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kalit so'zlar: milliy xotira konsepsiyasi, metaforik konstruktsiya, estetik paradigma, Sharq poetik maktabi, ruhiy-estetik dinamika.

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the poetics of national memory, the idea of freedom, and spiritual and intellectual experiences in the poetry of Rauf Parfi. Symbols such as darkness - light, night - dawn, lamp - soul, sun - freedom in the poet's lyrics are interpreted in connection with the tradition of symbolic thinking inherent in Eastern poetics. The article scientifically substantiates the expression of national identity, historical memory, and the process of spiritual awakening in the poet's lyrics through a symbolic-metonarrative system.

Keywords: concept of national memory, metaphorical construction, aesthetic paradigm, Eastern poetic school, spiritual and aesthetic dynamics.

Sharq she'riyati, xususan turkiy nazm an'anasida poetik mazmunning asosiy tashuvchisi – ramzlar va obrazlar tizimidir. Sharq poetikasida badiiy fikr, odatda, bevosita emas, balki timsoliy ifoda, kinoya, majoz va ramziy parallelizmlar orqali talqin etiladi. Turkiy adabiy an'ana bu borada alohida badiiy imkoniyatlarga ega bo'lib, unda ramzlarning ma'nodorligi, timsollarning mazmuniy zichligi, badiiy tafakkurning ko'p qatlamliligi muhim o'rin tutadi.

XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o'zbek she'riyatida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov va Rauf Parfi kabi ijodkorlar lirikasida ramziy-falsafiy tafakkur yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, Rauf Parfi she'riyati o'zining ramziy poetikasi, ruhiy-intellektual qatlamlari va milliy-ozodlik g'oyalarini timsollar vositasida ifodalay olishi bilan ajralib turadi.

Zolim tuzum tasvirida “istibdod” timsoli “zulmat” obrazida mujassamlashtiriladi. Zulmat – ma'naviy qamal, millatning ruhiy iztiroblari, fikriy erkinlikning bo'g'ilishi demakdir. Shoir uchun vatanning zulmat ichra qolishi — shaxsiy fojidan ham og'irroq milliy fojia. Shu bois Rauf Parfi lirikasida iztirob, o'ksinish, ruhiy qarama-qarshilik kabi holatlar ijtimoiy voqelikning badiiy in'ikosiga aylanadi.

Biroq shoir poetikasida zulmatning o'ziga xos ziddi ham mavjud: u – tong timsoli. Sharq poetikasida tong – yangilanish, ozodlik, uyg'onish, zulmatning barham



topishi kabi ma'nolarni anglatadi. Shoir bu obrazga falsafiy-estetik yuklama beradi: "charxi davvorning aylanma tabiati", ya'ni tarixiy jarayonlarning o'zgaruvchanligi, zulmning abadiy emasligi tong timsoli orqali poetik umumlashmaga ko'tariladi.

Mumtoz adabiyotimizda quyoshning chiqishi ko'pincha falak maydoniga lashkar tortgan xoqon, uning nurdan iborat qo'shinlari esa zulmat ustiga yurish qilayotgan bahodirlar sifatida tasvirlanadi. Bu kabi tasavvur Sharq poetikasida keng qo'llanilgan obrazlardan biridir. Ammo quyoshning to'g'ridan-to'g'ri zambarak obraziga qiyoslanishi o'zbek mumtoz she'riyatida deyarli uchramaydi. Shu bois Rauf Parfi tomonidan quyoshning "zambarak" kabi harbiy metaforaga solinishi o'zining badiiy yangiligi, tasavvuri kengligi va estetik dadilligi bilan ajralib turadi.

Qorong'u tunga qarata "o'q otayotgan zambarak" timsoli – o'zbek she'riyatida kam uchraydigan, poetik innovatsiya darajasiga ko'tarilgan obrazdir. Shoir tongning vazifasini "zulmatga qarshi hujum" tarzida talqin etar ekan, quyosh nuri nafaqat yorug'lik manbai, balki zulmga, istibdodga qarshi yo'naltirilgan ma'rifiy-ruhiy zarba sifatida ko'rsatiladi. Bu kabi badiiy qarash ijodkorning keng qamrovli imaginasiyasi, ramziy tafakkur salohiyati va metaforik konstruksiya yaratish mahoratini ko'rsatadi.

"Yaralangan boshiga yashil chambarak o'ragan yer shari" obrazida shoir istibdod davrida Vatan va millat ko'rgan ma'naviy-ruhiy jarohatlarni umumlashtiradi. Yer sharining "yaralangan" deb sifatlanishi – shaxsiy kechinmadan ko'ra ko'lamliroq, butun jamiyatga taalluqli iztirobning badiiy modelidir. "Yashil chambarak" esa bir tomondan tabiatning yangilanishi, ikkinchi tomondan – milliy uyg'onish va umidning ramzidir.

Bu misralarda mumtoz poetikaga xos bir qator badiiy san'atlar – tashxis ("tong o'qlar otar"), sifatlash ("yaralangan yer shari"), tashbeh ("quyosh zambarak") uyg'un qo'llanib, poetik konstruksiyaning badiiy yaxlitligi ta'minlanadi. Ramzlar tizimining mazmuniy zichligi esa she'rning semantik qatlamini yanada boyitadi. Quyidagi misralar mazkur poetik jarayonning mantiqiy davomidir:

Tong otmoqda, musaffo tongga

Yuragini tutar odamlar.

Shu tong uchun kelar jahonga

Va shu tong deb o'tar odamlar.

Tong otmoqda...

Bu yerda tong – shunchaki tabiiy hodisa emas, balki ozodlik, irdiy uyg'onish va ruhiy poklanish ramzi sifatida talqin etiladi. "Odamlarning tongga yuragini tutishi" obrazida shoir xalqning ozodlikka bo'lgan intilishi, milliy uyg'onish jarayonining ruhiy manzili bilan bog'liq badiiy umumlashma yaratadi.



Shoir mazkur she'rdagi "ozodlik", "mustaqillik" kabi siyosiy-mafkuraviy tushunchalarni bevosita qo'llamaydi. Ammo o'quvchi "tagmatn" (subtekst) orqali aynan shu ma'nolarni anglaydi. Bu – badiiy bilvositalilik tamoyili, ya'ni adabiyotda ko'p ma'nolilikni ta'minlaydigan yuqori darajadagi poetik usuldir. Adabiy tafakkurning aynan "aytmadan aytish" qobiliyati Rauf Parfi poetikasining estetik mezonlaridan biridir.

Rauf Parfi she'rlari umumiy jihatdan metaforalar va ramziy timsollar bilan to'yingan. Shoirning badiiy niyati ko'pincha bevosita bayon etilmaydi, balki poetik ramzlar tizimi orqali shakllanadi. Bu holat uning ijodida yetakchi poetik prinsip sifatida qaraladi. "Hasratlari ko'pdir dunyoning" she'ridagi quyidagi misralar fikrimizni tasdiqlaydi:

*Hasratlari dunyoning ko'pdir,
Lekin yo'li bir: quyosh sari.
Uning bir dam oromi yo'qdir,
U yaproqqa o'xshagan... sariq.*

Bu misralarda "quyosh sari yo'l olish" – insoniyatning yorug'lik, ma'rifat, yangilanish sari intilishi; "yaproqqa o'xshagan sariq dunyo" esa hayotning o'tkinchiligi, beqarorligi va tashvishli ruhiyatining badiiy modelidir. Bu kabi ramziy parallelizmlar shoir poetikasining falsafiy-estetik asosini tashkil etadi.

Rauf Parfi ijodida dunyo dardi, insoniyat iztiroblari va milliy ongning uyg'onish jarayoni chuqur poetik-falsafiy asosda talqin etiladi. Shoirning dunyoni hasratga to'la tarzda ko'rsatishi Sharq va Yevropa lirikasida qadimdan mavjud bo'lgan an'anaga tayanadi. Biroq Rauf Parfi bu ko'hna g'oyaga yangi badiiy shakl, yangi poetik libos hadya etadi. Ayniqsa, dunyoning "quyosh sari yo'nalishi" haqidagi tasvir mazkur iztirobni inkor etmay, balki uni umid va nekbinlik bilan uyg'unlashtirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Quyosh timsoli Sharq she'riy an'alarida doimo yorug'lik, ezgulik, ruhiy poklanishning ramzi sifatida talqin etilgan. Shoirning "dunyo quyosh sari ketmoqda" degan fikri mazkur ramzning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Naqadar hasratli bo'lmasin, dunyo harakatining yo'nalishi – ezgulik sari. Bu esa insonning orzu va ideallarsiz yashay olmasligi, jamiyatning ham ma'naviy ideallarga tayanmasa tanazzulga yuz tutishi haqidagi falsafiy umumlashmani yuzaga chiqaradi.

Rauf Parfi lirikasida ozodlik talqini aynan shu yorug'likka intilish konsepsiyasi bilan uyg'unlashtiriladi. Shuning uchun ham shoirning nurga, yorug'likka, tongga doir metaforalari faqat estetik emas, balki ideologik va ma'naviy yuklamaga ham ega.



Shoir dunyoni “yaproqqa mengzagan sariq surat” orqali tasvirlar ekan, mumtoz poetik tafakkurga xos “foniylilik”, “o‘tkinchilik”, “zavolga yuz tutish” g‘oyalarini modern ong bilan uyg‘unlashtiradi. Yaproq va kuz obrazlari o‘zbek va sharqona estetikada qadimdan vaqtning o‘tuvchanligi ramzi bo‘lib kelgan. Rauf Parfi bu an’anani takrorlamaydi, balki zamonning beqaror holatini sharhlab beruvchi poetik tashxis sifatida yangilaydi.

Rauf Parfi poetik tizimida chiroq timsoli alohida semantik markazga ega. Shoir uchun chiroq — faqat jismoniy yorug‘lik emas, balki ruhiy uyg‘oqlik, ma’naviy hushyorlik, ozodlik intilishining obrazidir. Quyidagi misralar shoirning jonsiz narsalarni jonlantirish, ularga antropomorf xususiyat berish san’atidan qanday foydalanishini ko‘rsatadi:

Chiroq. Chiroq yonar bo‘zarib!

Jim. Tinglangiz uning kuyini...

Chiroqning “kuy aytishi”, “kuyinishi” poetik jihatdan o‘ta ta’sirli topilmadir. Bu timsol shoirning ichki kechinmalarini tashqi bir shaklga ko‘chiradi. Chiroqning bo‘zarib yonishi – ruhiy qahru iztirob, milliy dard va ozodlikka tashnalik holatini ifodalaydi.

She’rning 1964-yilda yozilgani Rauf Parfi to‘lqinining tarixiy ildizlarini aniqroq ko‘rsatadi. Bu davr – Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlarning sho‘rolar mafkurasini fosh etuvchi, milliy o‘zlik va ozodlik g‘oyalarini dadil kuylagan yillari edi. “Turkistonim kabi yonar u” misrasi chiroq timsolini milliy iztirobning ramziy ekvivalenti sifatida talqin etadi.

Chiroq – erkparvar ajdodlar ruhining davomiyligi, milliy ongning yorug‘ligi va ozodlikka bo‘lgan umidning so‘nmas belgisi sifatida gavdalanadi. Demak, chiroqning yonishi – ma’naviy uyg‘onishning boshlanish nuqtasidir.

Rauf Parfi lirikasida dunyo hasrati, zulmat va yorug‘lik oppozitsiyasi, milliy ozodlik g‘oyasi o‘zaro uyg‘unlashgan murakkab poetik-falsafiy tizimni tashkil etadi. Yorug‘lik timsollarining ustuvorligi shoirning ma’naviy uyg‘oq pozitsiyasini belgilaydi. Chiroq, quyosh, tong obrazlari shoirning davr va jamiyat haqidagi tashxisini, milliy istiqloq haqidagi orzusini badiiy-falsafiy darajada mujassamlashtiradi. Rauf Parfi she’riyati shunday murakkab timsollar tizimi orqali o‘zbek lirikasida yangicha badiiy-estetik paradigma yaratgan ijod maktabi sifatida e’tirofga loyiqdir.

Rauf Parfi lirikasida inson ruhiyati, millat taqdiri va ozodlik g‘oyasi yetakchi poetik mazmun sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning turli she’rlarida uchraydigan murakkab ramzlar tizimi, ayniqsa, yorug‘lik – zulmat, tong – tun, yomg‘ir – ruh



singari binar qarama-qarshiliklarga asoslangan poetik model uning estetik idealining badiiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, Rauf Parfi lirikasida ramzlar tizimi, metaforik konstruksiya va ruhiy-estetik dinamika bir butun holda ishlay olganligi shoir ijodini zamonaviy o‘zbek poetikasining muhim bosqichiga aylantiradi. Shoir yaratgan obrazlar nafaqat adabiy-estetik hodisa, balki milliy tafakkur, ozodlik g‘oyasi va tarixiy xotiraning badiiy modeli sifatida ilmiy e‘tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Парфи Р. Сабр дарахти. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
2. Парфи Р. Сакина. Сайланма. –Т.: Мухаррир, 2013.
3. Парфи Р. Сукунат. – Т.: Юлдузча, 1989.
4. Парфи Р. Тавба. – Т.: Ёзувчи, 2000.

